

O'zbekistonda turizm va dam olishning rivojlanishi

2025-yil uchun

- I. Xalqaro turizm
- II. Ichki turizm
- III. Turistik firma va tashkilotlarning faoliyati
- IV. Joylashtirish vositalarining faoliyati
- V. Turizm va dam olishning rivojlanishiga doir ko'rsatkichlar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar


I. Xalqaro turizm

Xalqaro turizm quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- **kirish turizmi** – O'zbekistonda doimiy yashamaydigan shaxslarning O'zbekiston hududidagi sayohati;
- **chiqish turizmi** – O'zbekistonda doimiy yashovchi shaxslarning boshqa mamlakatga sayohati ([18.07.2019-yildagi O'RQ-549-son Qonuni](#)).

Turistik safarlar soni ¹⁾

(tegishli yil uchun, ming safar)



2025-yilda turistik maqsadlarda xorijiy fuqarolar tomonidan O'zbekistonga **11 679,6 mingta safar** amalga oshirildi va 2024-yilga nisbatan ushbu ko'rsatkich **3 722,4 mingta** (yoki **46,8 foiz**)ga oshdi.

Turistik maqsadlarda xorijga chiqqan O'zbekiston fuqarolari safarlari soni **7 559,7 mingtani** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **1 375,9 mingta** (yoki **22,3 foiz**)ga ko'paydi.

¹⁾ Safarlar soni hisobga olinadi, chunki respublikaga kirib kelgan yoki respublikadan ketgan bir shaxs bir necha marotaba qayd etilgan bo'lishi mumkin va har bir safar alohida bir holat sifatida ko'riladi.

Turistik safarlar sonining maqsadlar kesimida taqsimlanishi

(2025-yil uchun, ming safar)

Turistik safarlarning maqsadlari	O'zbekistonga tashrif buyurgan chet el fuqarolarining turistik safarlari soni		Chet elga ketgan O'zbekiston fuqarolarining turistik safarlari soni	
	jami	jamiga nisbatan foizdagi ulushi	jami	jamiga nisbatan foizdagi ulushi
Jami	11 679,6	100	7 559,7	100
<i>shundan:</i>				
Xizmat safari	1 321,5	11,3	15,8	0,2
O'qish	39,7	0,4	28,9	0,4
Bo'sh vaqt va dam olish	1 922,1	16,5	1 563,7	20,7
Qarindoshlarni yo'qlash	7 863,3	67,3	5 886,1	77,8
Davolanish	86,2	0,7	65,2	0,9
Tijorat	446,8	3,8	-	-

2025-yilda xorijiy fuqarolar O'zbekistonga asosan qarindoshlarini yo'qlash maqsadida keldilar va ushbu turistik safarlar **7 863,3 mingta** (yoki jami safarlarning **67,3 foizi**)ni tashkil etdi. Bo'sh vaqtni o'tkazish va dam olish maqsadida – **1 922,1 mingta (16,5 %)**, xizmat maqsadida – **1 321,5 mingta (11,3 %)**, tijorat maqsadida esa **446,8 mingta (3,8 %)** safar amalga oshirildi. Davolanish maqsadidagi safarlar soni **86,2 mingtani (0,7 %)**, o'qish maqsadidagi safarlar esa **39,7 mingtani (0,4 %)** tashkil etdi.

O'zbekiston fuqarolarining xorijga qarindoshlarni yo'qlash maqsadida amalga oshirgan turistik safarlari soni ustunlik qilib, **5 886,1 mingta** (yoki jami safarlarning **77,8 foizi**)ga yetdi. Bo'sh vaqtni o'tkazish va dam olish maqsadida – **1 563,7 mingta (20,7 %)**, davolanish maqsadida – **65,2 mingta (0,9 %)**, o'qish maqsadida – **28,9 mingta (0,4 %)**, xizmat maqsadida esa **15,8 mingta (0,2 %)** safar amalga oshirildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[O'zbekistonga tashrif buyurgan chet el fuqarolarining turistik safarlari soni \(jami\)](#)

[Chet el fuqarolarining turistik safarlari sonining davlatlar kesimida taqsimlanishi](#)

[Chet el fuqarolarining xizmat maqsadida amalga oshirgan turistik safarlari soni](#)

[Chet el fuqarolarining o'qish maqsadida amalga oshirgan turistik safarlari soni](#)

[Chet el fuqarolarining bo'sh vaqtini o'tkazish va dam olish maqsadida amalga oshirgan turistik safarlari soni](#)

[Chet el fuqarolarining qarindoshlarini yo'qlash maqsadida amalga oshirgan turistik safarlari soni](#)

[Chet el fuqarolarining davolanish maqsadida amalga oshirgan turistik safarlari soni](#)

[Chet el fuqarolarining tijorat maqsadida amalga oshirgan turistik safarlari soni](#)

[O'zbekiston fuqarolarining xorijiy davlatlarga turistik safarlari soni \(jami\)](#)

[O'zbekiston fuqarolarining turistik safarlari sonining davlatlar bo'yicha taqsimlanishi](#)

[O'zbekiston fuqarolarining xizmat maqsadida amalga oshirgan turistik safarlari soni](#)

[O'zbekiston fuqarolarining o'qish maqsadida amalga oshirgan turistik safarlari soni](#)

[O'zbekiston fuqarolarining bo'sh vaqtini o'tkazish va dam olish maqsadida amalga oshirgan turistik safarlari soni](#)

[O'zbekiston fuqarolarining qarindoshlarini yo'qlash maqsadida amalga oshirgan turistik safarlari soni](#)


[O'zbekiston fuqarolarining davolanish maqsadida amalga oshirgan turistik safarlari soni](#)

II. Ichki turizm

Ichki turizm O'zbekistonda doimiy yashovchi shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududidagi sayohatini o'z ichiga oladi ([18.07.2019-yildagi O'RQ-549-son Qonuni](#)).

Mamlakat ichida amalga oshirilgan turistik safarlar soni ¹⁾

(tegishli yil uchun, mln safar)



2025-yilda mamlakat ichida **137,7 mln turistik safar** amalga oshirildi va ushbu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan **8,2 mln** (yoki **6,3 foiz**)ga o'sdi.

Mamlakat ichida amalga oshirilgan turistik safarlar sonining maqsadlar kesimida taqsimlanishi

(2025-yil uchun, mln safar)

Turistik safarlarning maqsadlari	Safarlar soni	
	jami	jamiga nisbatan foizdagi ulushi
Jami	137,7	100
<i>shundan:</i>		
ta'til, bo'sh vaqt va dam olish	25,8	18,7
qarindosh va tanishlarni yo'qlash	73,9	53,7
ta'lim olish va kasbiy tayyorgarlik	0,8	0,6
davolanish va sog'lomlashtirish muolajalarini o'tkazish	1,6	1,2
diniy joylar va ziyoratgohlarga tashrif buyurish	12,4	9,0
xaridlarni amalga oshirish	17,8	12,9
boshqa shaxsiy maqsadlar	1,5	1,1
ishga doir va kasbiy maqsadlar	3,9	2,8

¹⁾ Ko'rsatkichlar uy xo'jaliklarining tanlanma kuzatuv natijalari asosida shakllantirilgan.

2025-yilda mamlakat ichidagi turistik safarlarning yarmidan ko'pi qarindoshlar va tanishlarni yo'qlash maqsadida amalga oshirildi va ularning soni **73,9 mln safar** (yoki jami safarlarning **53,7 foizi**)ni tashkil etdi. Ta'til, bo'sh vaqtni o'tkazish va dam olish maqsadida – **25,8 mln (18,7 %)**, xaridlarni amalga oshirish maqsadida – **17,8 mln (12,9 %)**, diniy joylar va ziyoratgohlarga tashrif buyurish maqsadida esa **12,4 mln (9,0 %) safar** amalga oshirildi.

Ishga doir va kasbiy maqsadlarda – **3,9 mln (2,8 %)**, davolanish va sog'lomlashtirish muolajalarini o'tkazish maqsadida – **1,6 mln (1,2 %)**, boshqa shaxsiy maqsadlarda – **1,5 mln (1,1 %)**, ta'lim olish va kasbiy tayyorgarlik maqsadida esa **0,8 mln (0,6 %) safar** amalga oshirildi.


III. Turistik firma va tashkilotlarning faoliyati

Turoperatorlik va turagentlik faoliyati, shuningdek sayohatlar tashkil etishga doir boshqa faoliyat **turistik faoliyatdir**. Turistik mahsulotni shakllantirish, targ'ib etish va realizatsiya qilish yuzasidan yuridik shaxs tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati **turoperatorlik faoliyatidir**. Turistik mahsulotni targ'ib etish va realizatsiya qilish yuzasidan yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati **turagentlik faoliyatidir** ([18.07.2019-yildagi O'RQ-549-son Qonuni](#)).


Turistik mahsulot turistik bozor konyunkturasidan kelib chiqqan holda yoxud turistning yoki ekskursantning buyurtmasiga ko'ra turoperator tomonidan shakllantiriladigan, turistning va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan turistik xizmatlar majmuidir ([18.07.2019-yildagi O'RQ-549-son Qonuni](#)).

Turistik firma va tashkilotlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari ¹⁾ (tegishli yil uchun)


**Turistik firma
va tashkilotlar soni**
(birlik)



**Xizmat ko'rsatilgan
shaxslar soni**
(ming kishi)



**Sotilgan sayyohlik
yo'llanmalari soni**
(ming birlik)



¹⁾ Ma'lumotlar yuridik shaxslar tomonidan taqdim etiladigan 1 turizm shakli bo'yicha statistika hisoboti asosida shakllantirilgan. Jismoniy shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobga olinmagan.

2025-yilda O'zbekistonda **869 ta turistik firma va tashkilot** faoliyat yuritib, ular tomonidan **1 981,7 ming nafar shaxsga** ¹⁾ xizmat ko'rsatildi va **706,9 mingta sayyohlik yo'llanmasi** sotildi.

2024-yilga nisbatan turistik firma va tashkilotlar soni **126 ta** (yoki **17,0 foiz**)ga, xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni **8,8 ming nafar** (yoki **0,4 foiz**)ga, sotilgan sayyohlik yo'llanmalari soni esa **105,4 mingta** (yoki **17,5 foiz**)ga oshdi.

**Turistik firma va tashkilotlar faoliyati ko'rsatkichlarining
hududlar kesimida taqsimlanishi**
(2025-yil uchun)

	Turistik firma va tashkilotlar soni		Xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni		Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari soni	
	jami (birlik)	jamiga nisbatan foizdagi ulushi	jami (ming kishi)	jamiga nisbatan foizdagi ulushi	jami (ming birlik)	jamiga nisbatan foizdagi ulushi
O'zbekiston Respublikasi	869	100	1 981,7	100	706,9	100
<i>hududlar:</i>						
Qoraqalpog'iston Resp.	8	0,9	30,7	1,6	19,1	2,7
Andijon viloyati	12	1,4	4,0	0,2	3,9	0,6
Buxoro viloyati	64	7,4	133,6	6,7	51,0	7,2
Jizzax viloyati	18	2,1	41,7	2,1	21,9	3,1
Qashqadaryo viloyati	13	1,5	23,1	1,2	15,1	2,1
Navoiy viloyati	26	3,0	31,7	1,6	0,1	0,0
Namangan viloyati	9	1,0	6,4	0,3	6,5	0,9
Samarqand viloyati	173	19,9	192,8	9,7	103,2	14,6
Surxondaryo viloyati	13	1,5	1,9	0,1	1,8	0,3
Sirdaryo viloyati	3	0,3	2,3	0,1	2,3	0,3
Toshkent viloyati	23	2,6	5,7	0,3	4,0	0,6
Farg'ona viloyati	30	3,5	20,0	1,0	13,7	1,9
Xorazm viloyati	29	3,3	548,7	27,7	25,0	3,5
Toshkent shahri	448	51,6	939,1	47,4	439,3	62,2

2025-yilda turistik firma va tashkilotlar eng ko'p Toshkent shahrida (**448 ta**), Samarqand (**173 ta**) va Buxoro (**64 ta**) viloyatlarida faoliyat yuritdi. Eng kam sonli tashkilotlar esa Sirdaryo viloyatida (**3 ta**), Qoraqalpog'iston Respublikasida (**8 ta**) va Namangan viloyatida (**9 ta**) kuzatildi.

Turistik firma va tashkilotlar tomonidan eng ko'p shaxslarga xizmat ko'rsatish Toshkent shahri (**939,1 ming nafar**), Xorazm (**548,7 ming nafar**) va Samarqand (**192,8 ming nafar**) viloyatlariga to'g'ri keldi. Surxondaryo (**1,9 ming nafar**), Sirdaryo (**2,3 ming nafar**) va Andijon (**4,0 ming nafar**) viloyatlarida esa xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni eng kam bo'ldi.

¹⁾ Faqat viza, xorijga chiqish pasporti rasmiylashtirilgan, mehmonxonada joy band qilingan va shu kabi xizmatlar ko'rsatilgan shaxslarni ham o'z ichiga oladi.

Turistik firma va tashkilotlar tomonidan eng ko'p sayyohlik yo'llanmalari Toshkent shahri (**439,3 mingta**), Samarqand (**103,2 mingta**) va Buxoro (**51,0 mingta**) viloyatlarida sotildi. Navoiy (**0,1 mingta**), Surxondaryo (**1,8 mingta**) va Sirdaryo (**2,3 mingta**) viloyatlarida esa eng kam sayyohlik yo'llanmalari sotildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat yuritayotgan turistik firma va tashkilotlar soni](#)

[Turistik firma va tashkilotlar tomonidan xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni](#)

[Turistik firma va tashkilotlar tomonidan sotilgan sayyohlik yo'llanmalari soni](#)


IV. Joylashtirish vositalarining faoliyati

Joylashtirish vositalari mehmonxonalar, turistik bazalar va majmualarni, dam olish uylari va zonalarini, pansionatlar, kempinglar, motellar, mehmon uylarini, o'tov va chodirli oromgohlar, sanatoriylarni hamda mehmonxona xizmatlari (joylashtirish bo'yicha xizmatlar) ko'rsatiladigan boshqa obyektlarni, shuningdek joylashtirish vositasi sifatida tunab qolish uchun jihozlangan yer usti transportini o'z ichiga oladi ([18.07.2019-yildagi O'RQ-549-son Qonuni](#)).

Nomer fondi – joylashtirish vositasidagi umumiy nomer (xona)lar soni (ya'ni yashash uchun mo'ljallangan turar joy xonalari). Vaqtincha yashash uchun zarur bo'lgan mebel, jihoz va inventarlar bilan jihozlangan bir yoki bir nechta turar joy xonalari nomer (xona) deb hisoblanadi.

Joylashtirish vositalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari ¹⁾

(tegishli yil uchun)



¹⁾ Ma'lumotlar yuridik shaxslar tomonidan taqdim etiladigan 1 turizm shakli bo'yicha statistika hisoboti asosida shakllantirilgan. Jismoniy shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobga olinmagan.

2025-yilda O'zbekistonda joylashtirish vositalarining **3 644 ta** obyekti bo'lgan va 2024-yilga nisbatan obyektlarning soni **44 ta** (yoki **1,2 foiz**)ga oshdi. Joylashtirilgan shaxslar soni **4 356,1 ming nafarga** yetib, **94,3 ming nafar** (yoki **2,2 foiz**)ga ko'paydi. Joylashtirish vositalaridagi nomer (xona)lar soni **60,4 mingtani** tashkil etib, **2,1 mingta** (yoki **3,6 foiz**)ga o'sdi. Ulardagi joylar soni esa **167,1 mingtaga** yetib, 2024-yilga nisbatan **21,4 mingta** (yoki **14,7 foiz**)ga ko'p bo'ldi.

Joylashtirish vositalari faoliyati
ko'rsatkichlarining hududlar kesimida taqsimlanishi
(2025-yil uchun)

	Joylashtirish vositalarining obyektlari soni (birlik)	Joylashtirilgan shaxslar soni (ming kishi)	Nomerlar (xonalar) soni (ming birlik)	Joylar soni (ming birlik)
O'zbekiston Respublikasi	3 644	4 356,1	60,4	167,1
<i>hududlar:</i>				
Qoraqalpog'iston Resp.	90	58,4	1,1	3,9
Andijon viloyati	113	102,6	2,1	5,3
Buxoro viloyati	370	388,4	5,4	12,4
Jizzax viloyati	124	114,9	1,8	4,2
Qashqadaryo viloyati	141	108,8	2,0	10,3
Navoiy viloyati	105	97,9	2,5	6,9
Namangan viloyati	87	124,5	2,4	7,2
Samarqand viloyati	501	746,1	8,3	21,4
Surxondaryo viloyati	103	125,7	2,2	6,1
Sirdaryo viloyati	31	43,2	0,4	0,9
Toshkent viloyati	442	463,8	6,9	22,9
Farg'ona viloyati	167	194,5	2,6	11,0
Xorazm viloyati	251	262,7	4,2	11,0
Toshkent shahri	1 119	1 524,6	18,5	43,6

2025-yilda joylashtirish vositalarining obyektlari eng ko'p Toshkent shahrida (**1 119 ta**), Samarqand (**501 ta**) va Toshkent (**442 ta**) viloyatlarida qayd etildi. Eng kam sonli obyektlar esa Sirdaryo (**31 ta**), Namangan (**87 ta**) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (**90 ta**) kuzatildi.

Eng ko'p joylashtirilgan shaxslar Toshkent shahri (**1 524,6 ming nafar**), Samarqand (**746,1 ming nafar**) va Toshkent (**463,8 ming nafar**) viloyatlariga to'g'ri keldi. Sirdaryo viloyati (**43,2 ming nafar**), Qoraqalpog'iston Respublikasi (**58,4 ming nafar**) va Navoiy viloyatida (**97,9 ming nafar**) esa joylashtirilgan shaxslar soni kam bo'ldi.

Joylashtirish vositalaridagi nomer (xona)lar soni bo'yicha Toshkent shahri (**18,5 mingta**), Samarqand (**8,3 mingta**) va Toshkent (**6,9 mingta**) viloyatlari yetakchilik qildi. Eng kam nomer (xona)lar Sirdaryo viloyati (**0,4 mingta**), Qoraqalpog'iston Respublikasi (**1,1 mingta**) va Jizzax viloyatida (**1,8 mingta**) kuzatildi.

Joylashtirish vositalaridagi joylarning eng ko'p qismi Toshkent shahri (**43,6 mingta**), Toshkent (**22,9 mingta**) va Samarqand (**21,4 mingta**) viloyatlariga to'g'ri keldi. Eng kam sonli joylar esa Sirdaryo viloyati (**0,9 mingta**), Qoraqalpog'iston Respublikasi (**3,9 mingta**) va Jizzax viloyatida (**4,2 mingta**) qayd etildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Joylashtirish vositalarining obyektlari soni](#)

[Joylashtirish vositalaridagi joylar soni](#)

[Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarining obyektlari soni](#)

[Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalaridagi joylar soni](#)

[Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslar soni](#)

[Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarining obyektlari soni](#)

**V. Turizm va dam olishning rivojlanishiga doir ko'rsatkichlar
bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar**

Turizm statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar (TSXT, 2008)ga muvofiq, "turizm" tushunchasi tashrif buyuruvchilar faoliyatiga mansubdir.

Tashrif buyuruvchi "sayohatchi" tushunchasining quyi toifasi, turizm esa "sayohat" tushunchasining quyi toifasi hisoblanadi. Turistik safarni amalga oshirayotgan sayohatchi tashrif buyuruvchi deb ataladi.

Kiruvchi turistik safar – tashrif buyuruvchining mamlakatga kirib kelgan paytidan boshlab, mamlakatdan chiqib ketgunga qadar amalga oshirgan sayohati.

Chiquvchi turistik safar – tashrif buyuruvchining o'z doimiy yashash mamlakatidan chiqib ketish paytidan boshlab, unga qaytib kelgunga qadar amalga oshirgan sayohati.

Jamoaviy joylashtirish vositasi (BMT Turizm (UN Tourism) terminologiyasiga muvofiq) sayyohlarga muntazam yoki vaqt-vaqti bilan tunab qolish uchun xona yoki boshqa binolarda joylashish imkoniyatini taqdim etadigan har qanday obyektni anglatadi, ammo undagi nomer (xona)lar soni har bir davlat tomonidan mustaqil ravishda belgilangan minimal darajadan ortiq bo'lishi kerak. Shu bilan birga, jamoaviy joylashtirish vositasidagi barcha nomer (xona)lar yagona boshqaruvga bo'ysunishi (hatto foyda olish maqsad qilinmagan bo'lsa ham), ko'rsatiladigan xizmatlar va mavjud jihozlarga muvofiq toifa va sinflarga ajratilgan bo'lishi kerak.

Jamoaviy joylashtirish vositalariga mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari (mehmonxonalar, motellar, qo'noquylar va mehmonxona turidagi boshqa tashkilotlar), ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari (sanatoriya-kurort tashkilotlari, sog'lomlashtirish tashkilotlari, dam olish uylari, pansionatlar, kempinglar, dam olish bazalari, turistik bazalar va boshqa ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari), individual va boshqa joylashtirish vositalari (mehmon uylari, dala hovlilari, o'tov lagerlari va individual joylashtirish vositalarining boshqa turlari) kiradi.

O'zbekistonda turizm va dam olishning rivojlanishiga oid statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

➤ **xalqaro turistik oqimlar bo'yicha ma'muriy ma'lumotlar.** Xorijga chiqqan O'zbekiston fuqarolari to'g'risidagi ma'lumotlar Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Migratsiya va personallashtirish departamenti Personallashtirish markazi, O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy fuqarolar to'g'risidagi ma'lumotlar esa Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari tomonidan taqdim etiladi. Ma'lumotlar har oyda Milliy statistika qo'mitasiga taqdim etiladi va safar maqsadlari, xorijga chiqqan O'zbekiston fuqarolari borgan mamlakatlar, shuningdek, O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy fuqarolar kelgan mamlakatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi;

➤ **ichki turizm bo'yicha uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvi materiallari** – "Ichki turizm va aholining jismoniy faolligi kuzatuvi so'rovnomasi". Kuzatuv respublikaning barcha hududlarida tanlab olingan uy xo'jaliklari o'rtasida o'tkaziladi va ichki turizm bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni shakllantirishda foydalaniladi;

➤ **yillik statistika hisoboti** 1 turizm shakli "Tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish va joylashtirish to'g'risidagi statistika hisoboti". Ushbu hisobotlarni sayyohlik-ekskursiya va joylashtirish (jamoaviy joylashtirish vositalari) xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar, zarur holatlarda ularning alohida bo'linmalari taqdim etadilar. Tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish va joylashtirish to'g'risidagi statistika hisobotlarida turistik firma va tashkilotlar (xodimlar, sotilgan sayyohlik yo'llanmalar va xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni haqida ma'lumotlar) hamda jamoaviy joylashtirish vositalari faoliyati (nomer fondi, joylashtirilgan shaxslar va tunab qolish holatlari soni), shuningdek, turizm va dam olish sohasini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar aks ettiriladi. Statistik ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi.

Turizm sohasidagi statistik ma'lumotlar turizm tarmog'ining holatini baholash, davlat siyosatini shakllantirish, rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, shuningdek, turistik oqimlar va aholining turistik afzalliklarini monitoring qilish hamda tahlil etishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ma'lumotlar davlat hokimiyati organlari, biznes hamjamiyati va xalqaro tashkilotlarga investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish hamda mamlakatda turizmning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Foydali havolalar:

[O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni \(18.07.2019-yildagi O'RO-549-son\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining tashqi sektori statistikasi shakllantirilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori \(03.04.2018-yildagi 263-son\)](#)

[Turizm statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar, 2008-yil](#)

[Turizm statistikasi bo'yicha uslubiy nizom](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish
statistikasi boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent sh.,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63
El. manzil: info@stat.uz
Tel.: (71) 203-80-00 (ichki raqam: 1305)

